TOSHKENT SHAHAR YUNUSOBOD TUMAN HOKIMI
Q A R O R I

2021 - yil 28 - dekabr 284-14-206-Q/21 Yunusobod tuman hokimligi

Toshkent shahar hokimining 2021 yil 7 dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 29 noyabrdagi O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘risidagi PF-27-sonli Farmoni ijrosi haqida”gi 525-14-0-Q/21-sonli qarori ijrosi to‘g‘risida

Toshkent shahar hokimining 2021 yil 7 dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 29 noyabrdagi O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘risidagi PF-27-sonli Farmoni ijrosi haqida”gi 525-14-0-Q/21-sonli qarori ijrosini ta’minlash maksadida,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Toshkent shahar hokimining 2021 yil 7 dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 29 noyabrdagi O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘risidagi PF-27-sonli Farmoni ijrosi haqida”gi 525-14-0-Q/21-sonli qarori ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur Farmoniga muvofiq:

O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasi (keyingi o‘rinlarda - Konsepsiya);

2022 - 2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimini rivojlantirish strategiyasi (keyingi o‘rinlarda - Strategiya);

2022 - 2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimini rivojlantirish strategiyasini 2022 yilda amalga oshirish bo‘yicha “Yul xaritasi” tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Tuman hokimining o‘rinbosarlari (M.Soatov, J.Nabiev):

Tumanda ommaviy tadbirlarni o‘tkazishda hamda istirohat bog‘lari, xiyobonlar va bozorlarda jamoat tartibini saqlashni tashkil etish bevosita Milliy gvardiya bo‘linmalari tomonidan amalga oshirilishi belgilanganligi inobatga olinsin.

4. Tuman hokimining o‘rinbosari (M.Soatov), tuman Favqulodda vaziyatlar bo‘limi

boshlig‘i (A.Kenjakulov), tuman Ichki ishlar organlarini faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig‘i (A.Shermuxamedov):

jamoat xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan tuman dasturlari tasdiqlansin va amalga oshirilsin;

yongin xavfsizligini ta’minlash tizimlari, shoshilinch tibbiy yordam xizmatlari, jamoat joylaridagi kommunikatsiya, muhandislik-texnik vositalar hamda boshqa tizimlarga qo‘yiladigan yagona huquqiy talablarga rioya etish chora-tadbirlari nazorat qilinsin;

tumanlardagi jamoat joylarida qurilish normalariga, texnik ekspluatatsiya qoidalariga, kommunikatsiya, ekologiya, sanitariya, epidemiologiya standartlari va talablariga rioya qilinishi nazoratga olinsin;

yo‘l harakatini tartibga solish va mavjud transport infratuzilmasidan oqilona foydalanish choralari ko‘rilsin;

jamoat xavfsizligini bevosita ta’minlovchi sub’ektlarni moddiy-texnik ta’minlash, ularning xodimlarini ijtimoiy himoya qilish darajasini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshirilishi ta’minlansin.

5. Tuman hokimining o‘rinbosarlari (M.Soatov, J.Nabiev), tuman Ichki ishlar organlarini faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig‘i (A.Shermuxamedov):

Yo‘l harakati xavfsizligini to‘lik ta’minlash borasida quyidagi zamonaviy yondashuvni amaliyotga tatbiq etilsin:

maktabgacha ta’lim va umumta’lim muassasalariga yondosh yo‘llarda tezlik me’yorlarini keskin kamaytirgan holda, ushbu me’yorlarni barcha joylar uchun yagona etib kat’iy belgilash;

shahar va tumanlarning aholi gavjum joylarida piyodalar yulakchalariga piyodalar boshqaradigan svetoforlarni o‘rnatish;

umumta’lim muassasalarida “Harakat xavfsizligi sinfxonalari”ni, mahallalarda “Yo‘l harakatini o‘rgatish maydonchalari”ni tashkil etish;

maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarga yo‘l harakati xavfsizligi asoslarini o‘kitish tizimini joriy etib, yo‘llarda, chorrahalarda va piyodalar o‘tish joylarida harakatlanish asoslarini amaliy hamda ko‘rgazmali tarzda o‘rgatishni yo‘lga qo‘yish choralarini ko‘rish.

6. Tuman hokimining o‘rinbosari (M.Soatov), tuman Ichki ishlar organlarini faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig‘i (A.Shermuxamedov):

O‘zbekiston Respublikasi Konsepsiyasi, Strategiyasi va “Yo‘l xaritasi”da belgilangan vazifalarni o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirilishi ta’minlansin.

7. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimi o‘rinbosari M.Soatov zimmasiga yuklatilsin.

Юнусобод туман ҳокими **Ж.Ибрахимов**